



IJIRSET

International Journal of Innovative Research in
SCIENCE | ENGINEERING | TECHNOLOGY

e-ISSN: 2319-8753 | p-ISSN: 2347-6710



INTERNATIONAL JOURNAL OF INNOVATIVE RESEARCH

IN SCIENCE | ENGINEERING | TECHNOLOGY

Volume 11, Issue 1, January 2022

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INDIA

Impact Factor: 7.569



9940 572 462



6381 907 438



ijirset@gmail.com



www.ijirset.com

Notatashtirishvakompyuterdasturlaridais hlashfaniorqali O'zbek musiqa merosining murakkab shakldagi namunalarini notaga olish

Ma'rufjon Ashurov Abdumatalibovich

Andijan State University, Faculty of Art History, Associate Professor of Music Education

Zahiriddin Muhammad Boburnomidagi Andijon davlat universiteti

San'atshunoslikfakulteti Musiqata'limikafedrasidotsenti

Annotatsiya: O'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari orasida doston alohida o'rinn tutadi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida folklorchi olimlar o'zbek baxshilari tomonidan yuz ellikka yaqin doston kuylanganini aniqlashgan va varlantlari bilan qo'shib hisoblaganda, ulardan to'rt yuztacha asarni yozib olishgan. Folklorshunoslarning aytishlaricha, birligina «Go'ro'g'li» turkumidagi dostonlar soni yuzdan oshadi, yolg'iz «Alpomish»ning qirqdan ortiq yozib olingan varlanti bor. «Doston» forscha so'z bo'lib, qissa, hikoya, sarguzasht, ta'rif ma'nolarini bildiradi.

Ushbumaqolada O'zbekmusiqamerosiningmurakkabshakldaginamunalarininotagaolishtajribasiyoritibberilgan

Kalit so'zlar: Ashula, doston, maqom yo'llari, cholg'u kuyi turkumi, maqomdon ustozlar, folklorchi olimlar, o'zbek baxshilari, do'mbira jo'rligi.

Kirish. O'zbek musiqa merosining yirik shakldagi (ashula, doston, maqom yo'llari, cholg'u kuyi turkumi kabi) namunalarini nota olish uslublari va asosiy me'zonlari.

O'zbek musiqa merosining yirik shakldagi (ashula, doston, maqom yo'llari, cholg'u kuyi turkumi kabi) namunalarini nota olish uslublari va asosiy me'zonlari haqida talabalarga ma'lumot berishda, V.Uspenskiy, Y. Rajabiy, M. Yusupov, YE.Ramonavskaya, K.Olimboyevalarning faoliyatları haqida ma'lumot berish yaxshi natijalar berishi shubxasiz.

Demak, XX asr boshlarida o'zbek-tojik xalqlari musiqa san'ati boyliklarini dastlab professor V. A. Uspenskiy notashtirishga kirishdi va u notaga olgan Shashmaqom nashr etildi.

Akademik Y.Rajabiyning O'zbek musiqa merosining yirik shakldagi (ashula, doston, maqom yo'llari, cholg'u kuyi turkumi kabi) namunalarini nota olish uslublari haqida talabalarga ma'lumot berishda ustozning qilgan xizmatlari naqadar yuksak ekanligi e'tirof e'tishimiz lozim.

Dostonlarni nota olish jarayonida kuy o'zgaruvchanligiga e'tibor berish to'g'risida.

O'zbekiston Radiosi atoqli san'atkor Yunus Rajabiy rahbarligida 1959 yilda tashkil etilgan maqom ansambl (so'nggi yillarda ayniqsa) samarali ish olib bordi. Ansambl qisqa vaqt davomida maqomlarning ashula bo'limlarini butunicha o'rganib, magniton tasmalariga va gramoplastikalarga yozdirdi. Binobarin, maqomlar haqida tasavvur etishga zo'r imkoniyatlar yuzaga keldi. Shunisi quvonarlichi, ansambl jamoasi maqomdon ustozlarning ijro uslubidan keng foydalaniib, maqom yo'llarini hozirgi zamon tinglovchilarining didiga moslashtirib aytganlar.

Ansamblning maqom ijrochiligidagi shu davrda orttirgan boy tajribasi asosida Shashmaqom ashula yo'llarining nota yozuvlariga muhim o'zgarishlar kiritildi. Natijada Shashmaqom Y. Rajabiy tomonidan ikkinchi marta nashrga tayyorlandi. Hozirda Shashmaqomning olti tomlik yangi nashri G'afur G'ulom nomli O'zbekiston badiiy adabiyot nashriyoti tomonidan bosmadan chiqarildi. Shubha yo'qki, Shashmaqomning bu yangi nashri o'zining ijobi Samaralarini beradi.

O'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari orasida doston alohida o'rinn tutadi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida folklorchi olimlar o'zbek baxshilari tomonidan yuz ellikka yaqin doston kuylanganini aniqlashgan va varlantlari bilan

qo'shib hisoblaganda, ulardan to'rt yuztacha asarni yozib olishgan. Folklorshunoslarning aytishlaricha, birlgina «Go'ro'g'li» turkumidagi dostonlar soni yuzdan oshadi, yolg'iz «Algomish»ning qirqdan ortiq yozib olingan varlanti bor. «Doston» forscha so'z bo'lib, qissa, hikoya, sarguzasht, ta'rif ma'nolarini bildiradi. Favqulodda xususiyatlarga ega qahramonlarning boshidan o'tgan voqealar she'r va nasrda aralash tasvirlangan yirik hajmli, muallifi nomalum epik asar xalq dostoni deyiladi. Yozma adabiyotda ham doston janridagi asarlar bor. Yozma dostonlar she'riy bo'lib, biror personaj boshidan kechirgan hodisalar shoirning tuyg'ulari bilan uyg'unlikda tasvirlanadi. Xalq dostonlariga xos asosiy belgilari shundan iboratki, ularda she'r bilan nasr aralashib keladi. Dostonlardagi she'rlar, asosan, o'n bir bo'g'inli bo'lib, barmoq vaznida aytildi. Qahramonlarning o'y-mulohazalari, nisbatan tinch ruhiy holati tasviri, o'zaro so'zlashuvlari o'n bir bo'g'inli she'r bilan ifodalanadi.

Ayrim hollarda tasvir talabiga ko'ra yetti, sakkiz bo'g'inli she'riy ifodalar ham uchrab turadi. Otlar chopishining shiddati, suronli jang manzaralari, personajlarning tezkor harakatlari aks etgan o'rinalar yetti-sakkiz bo'g'inli she'rlar vositasida beriladi.

Xalq dostonlaridagi nasriy parchalar ham o'ziga xos bo'lib, ko'pincha, saj' yo'lida, ya'ni qofiyali qora so'z shaklida yaratildi. Nasriy parchalarning bu tarzda berilishi xalq dostonlarining ifoda darajasini, badiiy ta'sirchanligini orttiradi.

Shuningdek, xalq dostonlarida asardan asarga ko'chib yuradigan, badiiy qolip holiga kelib qolgan she'riy qatorlar, qo'shmisralar yoki folklorshunoslari tili bilan aytganda, uslubiy formulalar ham muhim badiiy ahamiyat kasb etadi. «Yana bahor bo'lsa, ochilar gullar, Gulni ko'rsa, mast bo'b sayrar bulbullar», «Qiyg'ir degan qush o'tirar qiyada», «Ot chopsa, gumburlar tog'ning darasi, Botirni ingratar nayza yarasi», «Xazon bo'lmay bog'da gullar so'ldimi, So'lgan gulga bulbul kelib qo'ndimi?», «Davlatimdan shol-u sholdon o'rayman», «Oshiqning fahmidir qorong'i kecha, Yig'lasam, holimga yig'lar bir necha» singari ko'plab uslubiy formulalar she'riy bandlarning boshi, ba'zan o'rtaida kelib, aytuvchi baxshining nafas rostlashiga, fikrini to'plab olishiga, quyilib kelayotgan tuyg'ularni ifodalash uchun zarur so'zlarni topib olishga imkon yaratadi. O'zbek xalq dostonlari aytish yo'liga ko'ra:

1. Qashqadaryo-Surxondaryo dostonchilik yo'nalishi.
2. Samarqand dostonchilik yo'nalishi.
3. Farg'ona dostonchilik yo'nalishi.
4. Xorazm dostonchilik yo'nalishi singari to'rt yo'nalishga ega.

Qashqadaryo-Surxondaryo maktabida doston bir baxshi tomonidan do'mbira jo'rligida bo'g'izdan ijro etiladi. Samarqand yo'nalishida dostonlarni baxshi do'mbira bilan ochiq ovozda kuylaydi. Farg'ona yo'nalishida doston musiqa asbobisiz ohingga solib aytildi. Xorazm dostonchilari esa asarlarni jamoa bo'lib, tor, doira jo'rligida ijro etishadi.

Shashmaqomning Xorazm varianti esa, dastlab musiqashunos YE. YE. Romanovskaya tomonidan notaga olinib, nashr etildi. Bu kitob Xorazm maqomlarining faqat cholg'u yo'llarini o'z ichiga olgan edi. Keyingi yillarda Xorazm maqomlari Matniyoz Yusupov tomonidan to'planib, notaga olindi va Ilyos Akbarov tahriri ostida bosilib chiqdi

Maqom yo'llarinining o'ziga xos xususiyatlari. Usul bilan kuylarning mukammalligi va shakllan murakkabligi.

Katta ashula namunalariqa oid ritmik jihatlar. Ushbu janr asarlariga xos badihago'ylik tomonlari.

Cholg'u kuy va ashula turkumi namunalariqa oid parda-tuzuk birligi va ritmik rivoji.

Doira jo'rligida ijro etiladigan qo'shiq va kuylar.

Doira (childirma, chirmanda) – o'zbek, tojikvauyg`urxalqlariorasidakengtarqalgan. Doiraansamblvayakkaholda ham ijroetiladi. Doirajo'rligidagiraqlarso`zbekvatojikxalqlariorasidajudakengtarqalgan. Shashmaqomdoirausulisisizjyroqilinmaydi.Buxorodaharbirmaqomaytuvchihofiz, maqomusullariniidoiraustalikbilano`zlashtirganlarvao`zashulalarigajo`rbo`lganlar.

Shashmaqomdagiharbirkuyningo`zigaxosusuli bor. Shungako'ra, usullarshukuynomibilanyuritiladi.Masalan: "UsuliMuhammas" (Muhammasusuli), "UsuliTalqin", "UsuliTasnif" vaboshqalar.

Xalqcholg'usaboblarinnngpaydoboelishtarixiuzoqo,tmishgaboribtaqaladi. Musiqachilikdadastlaburmazarblicholg'ularpaydobo,Igan. BularNog,ora, chiadoltl, childirma, dowlvadoyralardir. Qadimzamonlardan

hozirgidavrimizgachabizgayetibkelgandoyracholg'uasbobio'zgantaganholdasaqlanibkelmoqda.Musiqasohasida, O'ftaOsiyovaSharqxalqlariqatori, o,zbekusullari, ya,niritmikyo'llarivaulamingrivojlanishusullarialohidao,rinegallaydi. Usullarqoidabo'yichauribchalinaniganmusiqaasboblariijrosidaqo'llaniladi.Engko'ptarqalganutmazarblimusiqaasboblarid an, O'zbekistonda, TojikistondaUyg'urxalqlari, shubilanbirqatorda, Sharqdao'ziningshiraliovogaegabo,Igan, musiqacholg,uasbobidoyrahisoblanadi.

O'zbek xalqi qadimdan doyra asbobini juda ardoqlab kelgan. O,tmishda bu asbob sadolari ostida xalqni maydonlarga, to'y-tomoshalarga, musobaqa kurashlarga va har-xil sayillarga chaqirganlar. Jumladan: "Hosil bayrami",

"Uzum sayli,,, "eol.un sayli" kabi mavsumiy bayramlar keng tarqalgan. Bayramlarda, madaniy marosimlarda ayniqsa karnay, surnay va nog'ora, dolra kabi urma zarbli musiqa cholg'ulari keng qo'llanilgan.

Buyuk Shark mutafakkirlarining merosi, halq cholg'ularini o'rganish sohasida ham tarixiy qimmatga ega. Abu Nasr Muhammad Farobiyning mashhur asari "Musiqa haqida katta kitob" ("Kitob al-musiqa, al-kabir") ulkan ahamiyatga ega. O,fia asr olimi bu kitobdan ikki xil musiqa ijrochiligi: ohangni inson ovozi (qo'shiq san,ati) va cholg'ular vositalarida qayta tiklashga ajratadi.

Maqom yo'llarining o'ziga xos xususiyatlari.

Maqom yo'llarining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash uchun maqomlar masalasidagi fikrlarni o'rghanish lozim. Maqomlarda Usul bilan kuylarning mukammalligi va shakllan murakkabligi o'ziga xos bo'ladi.

Yuqorida nomlari zikr etilgan mualliflarning X-XV asr Sharq musiqasiga doir risolalarida maqomlar masalasi musiqa nazariyasining eng yirik va tub masalalaridan biri sifatida qaraladi. Chunki musiqa nazariyasini sharhlab berishdan maqsad uni jonli musiqa asarlarining asosi bo'lgan maqomlar bilan bog'lab, musiqa nazariyasi va amaliyotini umumlashtirib tushuntirib berishdan iborat edi. Shunday ekan, bizning mavzuimiz bo'lgan maqomlar haqidagi mulohazalarni yuritishdan oldin ularga bog'liq bo'lgan va qadimiy musiqa risolalarida sharh etilgan ba'zi nazariy masalalar haqida qisqacha fikr yuritamiz. Bunda musiqaning paydo bo'lishi, umuman tovushlar tizimi hamda maqomlarning nazariy va amaliy masalalari ta'riflab beriladi.

Sharq musiqa nazariyasiga bag'ishlanib yozilgan ko'pgina yozma manbalarda musiqaning, xususan musiqa tovushlarining paydo bo'lishi haqida fikr yuritiladi. Bu o'rinda Mahmud SHeroziy "Durratut-toj" ensiklopediyasining musiqaga bag'ishlangan qismida hamda Abdurahmon Jomiyning "Risolai musiqiy" asarida keltirilgan ma'lumotlar diqqatga sazovordir. Dastlab mualliflar inson tovushining paydo bo'lishi, undan so'ngra musiqa tovushining yuzaga kelishi haqida gapiradilar.

Inson o'z hayotini boshlagan va tabiat hodisalarini anglab yetmagan dastlabki davrlarda ko'p jihatdan ojiz bo'lgan. Inson yashash uchun zarur vositalar izlab topish yo'lida juda ko'p musibat va xavf-xatarlarga duch kelgan, keyin jamoa bo'lib yashashga majbur bo'lgan. Jamoa bo'lib yashashda bir-birini xavf-xatardan ogohlantirish hamda bir-biridan ogoh bo'lish yo'lida aloqa vositalariga ehtiyoj sezilgan. Bunday vositalarning eng qulayi, tovush edi, deyiladi manbalarda. Dastlab tovushlar tabiat ashyolaridan, keyinchalik inson tomog'idan, musiqa cholg'ularidan hosil etiladigan bo'ladi.

Shunday qilib, turli xil tovushlar paydo bo'ladi. Bora-bora inson tovushlarning yoqimli va yoqimsiz turlarini ajratib ola boshlaydi.

Yoqimli tovushlardan musiqa tovushlari - nag'malar yuzaga kelgan. Nag'malardan esa kuy (alhon)lar yaratiladi. Kuy - nag'malarning cheklangan vaqt o'ichovlari bo'lmish ritm (iqo')larga bo'ysindirilgan shaklidir. Musiqa tovushlarini paydo bo'lishi haqidagi olimlar tomonidan berilgan ma'lumotning qisqacha mazmuni shunday.

Lekin, sodda qilib aytilsa, kuylar ladlar bilan birga tug'ilgan. Chunki musiqa asarları - tovushlar, ritm va ladlar birikmasidan tashkil topadi. Har qanday kuy ma'lum bir chegarada, ma'lum pardalar bo'yicha harakat etadi. Agar shu pardalardan hosil etiladigan tovushlarni bir safga terib chiqilsa, musiqa asarining lad asosi yuzaga keladi. Lad – tonallik esa u yoki bu kuyning maqomi, ya'ni harakat yo'lining ifodasıdir.

Shunday qilib, maqomlarning tarixi inson musiqa asarlarini yarata boshlagan davrlarga borib taqaladi. Maqomlarsiz kuylar bo'lmaydi, binobarin, maqomlar umuman musiqa asarlarining tushunchasiga kiradi. Shuni ham qayd etish kerakki, Sharq xalqlaridagi maqomlarning Forobi zamonasigacha bo'lgan tarixiy taraqqiyot yo'li haqida ma'lumotlar bizgacha saqlanmagan.

Musiqa asarlarining dastlabki shakllari ularning ritmikasi ham juda sodda bo'lgan. Hatto ba'zi kuylarning diapazoni juda tor, ikki-uch pog'onali bo'lgan.

Musiqa sharqshunosligi sohasida samarali ish olib borgan atoqli olim V. M. Belyayevning fikricha, hozirgi kunda o'zbek va tojiklarda musiqa asarlarining dastlabki shakllari marosim qo'shiqlari, bolalar qo'shiqlari, onalar allasi, yig'ilar vositalari bilan bizgacha yetib kelgan. Bu fikr haqiqatga yaqindir. Hatto bizgacha yetib kelgan boychechak, ramazon, onalar allalari, dostonchi shoirlar aytadigan qator doston va qo'shiqlar, yor-yor qo'shiqlari o'zining sodda intonatsiyasi, ritmik xususiyatlari jihatdan musiqa madaniyatining dastlabki davrlariga mansubdir, deyish mumkin.

Yozma manbalarda ko'rsatilishicha, birinchi yaratilgan musiqa ritmi "Zarbi qadim" ("Qadimiy zorb") deb ataladi. Bu ritm, go'yo inson tomirining urishidan olingan bo'lib, juda sodda "tan-tan" shaklida bo'lgan. So'ngra esa ritmlarning murakkabroq shakllari yuzaga kelgan. Masalan, (tana-tana), (tan-tan-tan), (tana-tana-tan),(tanna-tan) va hokazo. Bu ritmlar musiqa asarlar bilan birga yuzaga kelgan bo'lib, keyinchalik esa Sharq xalqlarida mustaqil doyra usullari tarzida ham ajralib chiqqan. Shunday qilib musiqa asarları sodda usuldan sekin-asta murakkablasha va ularning diapazoni kengaya boradi. Musiqa tarixiy taraqqiyotining dastlabki davrlarida yashagan kuy va qo'shiqlarni hali "maqom" – deb bo'lmagan, albatta. Chunki, ikki, uch yoki to'rt pog'onali kuylar va ularning tovushqatorlari "lad" diapazonida bo'la olmaydi. Shuning uchun aytish mumkinki, tom ma'nodagi "maqom"larning ham kuy, ham lad

tushunchalariniing paydo bo'lishi Sharq xalqlari musiqa madaniyati ancha taraqqiy etgan davrlariga to'g'ri keladi. Maqomlarning yuzaga kelishi – inson tafakkurining juda uzoq davrlarda olib borgan izlanishlarining samarasidir. Maqomlar insonning musiqa haqidagi tushuunchalari, musiqaviy-estetik qarashlari barkamol bo'lgan, kishilarning ongi va saviyasi yuksalgan bir davrda yuzaga kelgan.

Maqomlar tizimining shakllanishi jahon ilmu fanining rivojlanishi bilan ham chambarchas bog'liqdir. Sharq olimlari musiqani tabiiyot, falsafa va matematika fanlari bilan bog'liq ekanini uqdirib o'tganlar. Bu fikr, albatta asosli aytigal edi. Musiqa tabiiyot fani nuqtai nazaridan kishiga fiziologik ta'sir kuchiga ega bo'lsa, falsafa hamma fanlarni o'z ichiga olgan yagona fan hisoblangan.

Musiqa ilmi esa musiqaviy tovush (nag'ma)lar va intervallarning nisbati o'chanadigan matematika ilmi vositasi bilan yuzaga kelgan edi.

Musiqa asarlarini tashkil etadigan unsurlarning eng kichik birligi - ayrim musiqa tovushi (ton) bizgacha yetib kelgan nazariy kitoblarda nag'ma atamasi bilan nomlanadi.

O'zining baland-pastligi jihatidan muayyan nuqta (parda) chegarasida ma'lum vaqtgacha cho'zilib turadigan tovush-nag'ma deb ataladi. Savt (bu yerda musiqa asarları turlaridan hisoblanadigan Savt tushunchasi istisnodir) atamasi esa umuman tovush, ovoz ma'nolarida keladi. Savt tushunchasiga nag'ma bilan bir qatorda musiqaga bog'liq bo'lmagan boshqa xil tovushlar ham kiradi. Lekin nag'ma bo'lishi uchun hozirgi zamon musiqa nazariyasida bo'lganidek, tovushning xossalari (balandligi, uzunligi, kuchi va uning tusi-tembri) mavjud bo'lishi kerak. Doyra va sozlanmagan musiqa cholg'usi tovushlari hamda insonning tomog'idan chiqadigan dag'al ovoz musiqa risolalarining ko'pida nag'ma tushunchasidan holidir.

Musiqaga doir nazariy risolalarda nag'ma musiqaga bog'liq bo'lmagan boshqa xil tovushlardan qat'iy ravishda farq etiladi va ular o'zining ma'lum xususiyatlari bilan tavsiflanadi. Ayniqsa, bu yerda insonning qo'pol ovozi, sozlanmagan cholg'ular tovushi nag'ma, deb sanalmasligi Sharq musiqa nazariyasining o'ziga xos xususiyatlaridandir va bunda zamonasining shinavandalari ta'bi o'z ifodasini topgan.

Shuni ham aytish kerakki, Sharq xalqlarida qo'pol yoki yo'g'on ovozni uncha yoqtirmaganlar. Hatto Zahiriddin Muhammad Bobur ham o'zining "Boburnoma"sida bir necha o'rinda yo'g'on ovozli ashulalarni tilga oladi va "dag'al" ovoz – deb o'zining salbiy munosabatini bildiradi, mayin ovozni esa "xushtab" deb sanaydi.

Nag'ma ikki xil bo'ladi: "qavliy", ya'ni inson tovushi va "fe'liy" – sun'iy deb sanalgan musiqa cholg'ularidan chiqarib olinadigan tovushdir. Nag'ma tushunchasi, asosan, shunday.

Baland-pastligi jihatidan turlicha bo'lgan ikki xil nag'madan bo'd hosil bo'ladi. (O'tmish Sharq musiqa nazariyasida prima bo'd sanalmaydi). Bo'd ikki nag'ma birikmasi va ikki tovush oralig'i, ya'ni interval ma'nosini bildiradi. Lekin o'tmishda ularning ma'lum qismigina maxsus nomlar bilan atalgan.

O'tmishda bo'd (interval)larning turlari hozirgi zamon musiqa nazariyasiga ko'ra ancha ko'p bo'lgan va Sharq musiqa nazariyasida diatonik lad tizimidagiga nisbatan kichikroq yoki kattaroq oraliqdagi intervallar ham bo'lgan.

Ular intervalni tashkil etadigan, tovushlar chiqarib olinadigan torlarning uzun-qisqaligini ifodasi bo'lgan nisbiy sonlar vositasi bilan ko'rsatilgan va shu sonlar nisbatini ifodalovchi nomlar bilan atalgan. Hozirgi zamon musiqa nazariyasidagi interval tushunchasidan ba'zi o'ziga xos belgilari nuqtai nazaridan farqlanishi bilan tavsiflanadi, binobarin, ba'zi kattaroq intervallar diapazonidagi tovushqatorlar ham bo'd deb atalavergan. Bo'dlardagi bunday xususiyatlar Sharq xalqlarida mavjud musiqa asarlarida, shu jumladan, maqomlarda ham ma'lum darajada iz qoldirgan.

Shuni ham aytish lozimki, musiqa risolalarida keltirilgan intervallarning hammasi musiqa amaliyotida qo'llanila bermagan. Ularning ko'pi matematika qoidalari asosida chiqarib olinadigan, o'tmishdagi Sharq musiqasining amaliy masalalariga aloqasi bo'lmagan nazariy mulohazalardangina iborat bo'lgan. Sharq xalqlari musiqasi amaliyotda temperatsiya etilmagan diatonik lad uyushmalarini tashkil etuvchi va ularga mos keladigan intervallargina qo'llanib kelingani ma'lmdir.

Bir necha bo'dlar qo'shilmasidan jins (tur, nav')lar, ya'ni to'rt-besh pog'onali tovushqatorlar hosil bo'ladi. Ular hozirgi musiqa nazariyasida tetraxord va pentaxordlar deyiladi. Lekin jinsning ma'nosи bularga ko'ra yanada kengroqdir. Jinslar uch pog'onadan tortib, turlicha kenglikda, ya'ni 5-7 pog'onali ham bo'lishi mumkin.

Ular o'rta asr musiqasida yakka holda ham ishlatalib, asosan esa lad pog'onalarining pastki yoki yuqori qismini tashkil etadi. Masalan, hozirgi nota misolida quyidagicha bo'lishi mumkin.

Sharq musiqa nazariyasiga doir kitoblarda, jumladan, Forobiy, Ibn Sino, Sheraziyning musiqa risolalarida jinslar, hatto jam'lар va maqomlarning soni ham aniq ko'rsatilmaydi.

Lekinularjudakattaraqamnitashkiletsa-da, amaldaqo'llaniladiganturlarianchachegaralangan.

Ma'lumtovushpog' onalaridantashkilttopganjinslardanjam'larhosilbo'ladi. Jam' atamasitovushlarmajmuasima' nosidabo'lib, bu masala Sharqmusiqanazariyasi datovushtizimining yakunlovchi qismidir. Tovush (nag'ma) larqo'shilishdanbo'd, ularbirikmasidanjinslarhosilbo'lganidek, jinslarmajmuasidan "jam'lar" (tovushqatorlar) tuziladi. Jam'larningma' nosijudakengdir. Ularumuman "tovushqator" tushunchasini anglatib, jam'lartarkibigamaqomlar, sho'balarvaovozatamasibilanタルガルナーリング boshqaturlari ham kiradi. Musiqarisolalarim ualliflarima'lumdoirashakligatushirilib, vaqtinuqtainazaridanche klanib, tartibgasolingenjan'marnialhon (kuy), - deb ham ataydilar. Bu nazariyamasalalaro't mishda Sharqmusiqasiga bag'ishlanganrisolalarda deb audalaganmusiqacholq 'usigamoslabtushuntirilgan. Uqdqadimzamonlarda dayunonlarda bo'lgan lira cholg' usikabimashhurbo'lgan vayetakchisozlardan hisoblangan. Sharqmusiqanazariyasi ning masalalari ham udtorlarivapardalarivositasisbilantushuntiriladi.

Shuninguchunudningtuzilishibilanqisqachatanishbchiqishgato'g'rikeladi. Chunkibusozningtuzilishida Sharqxalqlarimusiqasidagi'zigaxosxususiyatlarketganbo'lib, o't mishdagi nazariyamasalalarqatoridamaqommasalasini ham nisbatan udtorlarivapardalariorqaliaslidaqandaybo'lsa, shunday tasavvuretish mumkin bo'lgan.

Katta ashula namunalariga oid ritmik jihatlar.

Katta ashula namunalariga oid ritmik jihatlar. Ushbu janr asarlariga xos badihago'ylik tomonlari.

Cholg'u kuy va ashula turkumi namunalariga oid parda-tuzuk birligi va ritmik rivoji.

Farg'ona – Toshkent musiqa uslubi – Farg'ona vodiysi, Toshkent shahri va viloyati hududlarida qaror topgan musiqiy an'analing majmuidir. Bunda xalq musiqasiga oid kuy, terma, lapar, yalla, qo'shiq, ashula kabi aytim janrlari, shuningdek, dostonchilik, ashulachilik, maqomchilik kabi musiqa an'anali o'z aksini topgan.

Farg'ona – Toshkent musiqa uslubida «katta ashula» deb nom olgan ashula yo'li ham bo'lib, u, odatda, turli ommaviy yig'in va tantanalarda, bayram marosimlari va gap-gashtaklarda hamda an'anaviy choyxona majlislarida hofizlar tomonidan ijro etilib kelingan.

Binobarin, xalqimizning madaniy hayotida har bir milliy cholg'uning o'z o'rni, vazifasi va ijro etiladigan maxsus kuylari bor. Misol tariqasida dutorni tavsiflash mumkin. Bu sozda ijro etish uchun maxsus «Qo'shtor», «Chertmak», «Dutor Bayoti» kabi kuylar bo'lishi bilan birga yana undan jo'rnavoz sifatida ham foydaliladi. Dutor (doyrakabi) xotin-qizlarorasidakengommashgancholq'udir. Aynichog'da, ashulachi-hofizlar ham dutornitan burbila nganashulab 'zashulaaytimlarigajo'rnavozetadir. Ammo tanbur, sato, nay, qo'shnay, g'ijjak, changsingarisozlarasankasbiy musiqachilarcholq'usihisoblanadi, ya'nibusozlarda ijroetishchun maxsus tayyorgarlikko'rganvazarurmalaka gagaegamusiqachilarbo'lishikerak. Farg'ona – Toshkent cholg' umusiqasidaraqskuylari ham mashhurdir. Bulardan, «Dilxiroj», «Andijon polkasi», «Farg'ona charez», «Tanavor», «Kattao'yin» kabiraqskuylarini aytish mumkin.

Kattaashula Farg'ona — Toshkent musiqa slubiningo'zigaxosxususiyatlardan biridir. Chunki, kasbiy musiqaga oid buashulajanriboshqamahalliyuslublarda uchramaydi. Kattaashula — yirikhajmlivakuy-ohanglarikengnafasgamo'ljallanganashulab 'lib, u yakkahofiz — ashulachiyoki 2 4 hamna fashofizlartomonidanaytiladi. Bundajo'rnavozcholq'ularqo'llanilmaydi. Kattaashulalarning nazmiyasoslarini aruzvaznidabo'lgandiniy-falsafiy, ishqiy-muhabbat, pand-nasihat kabi mavzulardagishe'riyat (Lutfiy, Sakkokiy, Navoiy, Muqimiy, Furqat, Miskin, Habibiyvaboshqalarining) namunalaritashkiletadi. Bu turdagia shulalar rivojlangan kuylarga egab 'lib, odatda, erkin ritm-o'Ichovasosidabidi haviylik xususiyatlari bilan kuyulanadi. Mazkurjanrning «patnusakiashula», «likobiashula» singari boshqachan omelanishlari ham ma'lumki, zero hofizlari jropaytidaqo'llari da patnisyokilikob (tarelka) ushlab turadilar.

Boltaboyhofiz, Hamroqulqori, Mamadbobo Sattorov, Akbarqori Haydarov, Erkaqori Karimov, Jo'raxon Sultanov, Ma'murjon Uzoqov qabihofizlarkattaashulalarning mahoratlilijrochilariedilar. Bu san'atkorlarkuylagan «Ko'perdi», «Birkelsun», «Ey dilbarijononim», «Adashganman», «Do'star », «Yovvoyi Chorgoh» singari kattaashulalarkengtinglovchilar ommasiga yaxshima'lumdir.

Xulosa. Keyingiyillardavomida ayrim kattaashulalarnicholq'ularjo'rligidaijroetishamaliyoti ham qo'llanaboshlandi. Bunga «Mehnatahli», «Ey dilbarijononim», «O'zbekiston» kabikattaashulalarnimisolkeltirish mumkin. Shuningdek, kattaashulalarni olib cholq'uda, masalan, naydaijroetishan'anasi ham yuzagakeldi. Bu o'rinda Ismoilnaychi, Abduqodirnaychiva Saidjon Kalonovlardekustozsan' atkorlarimizning xizmatlarikatta.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- Umurov N.K. Notnieri daktori Sibelius v7.1.13, Sibelius-6 (vozmojnost iisravnitelniyanalizversiy programmi Sibelius. –T.: 2015.

2. Elektronnaya dokumentatsiya programmi «Sibelius». Versii 4.0., 6.0.
3. SibeliusSoftwareLimited (2007-2010).
4. Azatyan G.R. Samouchitelpoprogramme Sibelius 4 g. Batumi - 2007 g.
5. Christine Lucia. Music Notation: A South African Guide. 2011 University of South Africa. Unisa press pretoria
6. DmitrijOstankovich. Notnyy redaktor Sibelius 6. Uchebnoeposobiepokursu «Kompyuternayanotografiya» dlyastudentovmuzyskalnyx spetsialnostey Astana 2013
7. Lebedev S. N., Trubinov P. Yu. Russkayakniga o Finale.-SPb.: Kompozitor · Sankt-Peterburg, 2003.- 208 s., il., not. ISBN 5-7379-0205-6
8. Michael Hewitt. Music Theory for Computer Musicians. 2008 Course Technology, a part of Cengage Learning.
9. Michael Miller. Music Theory Second Edition. A member of Penguin Group (USA) Inc.
10. S.B.Naumova, Yu.A.Medvedev. Rabota v notnomredaktore Finale 2002. Metodicheskirekomendatsii. – Vladimir: VGPU, 2007. – 40 s.
11. V.A.Shapilov Osnovy raboty v notnomredaktore Finale 2014 Uchebnoeposobie
12. V.I.Kozlin. Sekrety sozdaniyamuzyskalnyx proizvedeniy v notatore Sibelius-6 M.: DMK Press, 2015
13. V.I.Kozlin. Shkoly i gry na kompyutere v notatore Sibelius 6. – M.: DMK Press, 2011. 352s.: il



INNO SPACE
SJIF Scientific Journal Impact Factor

Impact Factor:
7.569



ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INDIA



INTERNATIONAL JOURNAL OF INNOVATIVE RESEARCH

IN SCIENCE | ENGINEERING | TECHNOLOGY

9940 572 462 **6381 907 438** **ijirset@gmail.com**

www.ijirset.com



Scan to save the contact details